



O'ZBEK TILIDA BELGI VA UNING DARAJA KATEGORIYASI TALQINIGA DOIR

Shomuratova Orzигul Xusan qizi

Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti, Filologiya kafedrası
assistant o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbek tilshunosligida daraja ma'nosini ifodalovchi vositalar formal-sinxronik tadqiqining ilk namunasini A.N.Kononov monografiyasida kuzatamiz. Olim sifat darajasi ikki ko'rinish (qiyosiy va orttirma)ga ega bo'lishini ko'rsatadi hamda qiyosiy darajaning uch usulda ifodalanishini ta'kidlaydi: a) morfologik; b) sintaktik; v) sintaktik-morfologik.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, ifoda, vosita, formal-sinxronik, morfologik.

Globallashuv davrida jahon tilshunosligida olam lisoniy manzarasining belgi-xususiyat va daraja tizimini tahlil qilish, muloqotda sifat darajalarini kategorial baholash, uni lisoniy tizimda aks ettirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shaxs, narsa-buyum, mavhum hamda aniq voqelik belgisi ma'lum kategorial darajada namoyon bo'ladi. Daraja tushunchasi talqiniga bag'ishlangan tadqiqotlarni bugungi izlanishlar sifatida baholash mumkin. O'zbek tilidagi daraja ma'nosini ifodalovchi vositalar, A.N.Kononov, T.I.Grunina, A.G'ulomov, S.N.Ivanov, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, G'.H.Ne'matov va boshqa olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan¹. Sifat va uning daraja kategoriyasini o'rganishda Z.Ma'rufov, A.Madrahimov, I.Hamdamova, F.Ishoqov, S.G'iyosov, M.Qo'ldoshev, Kim Byong Il, Z.Mamarajabova² tadqiqotlari e'tiborga molik. Sifat va uning daraja

¹ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л.: Изд-во Академии наук СССР, 1960. – С.162–165; Исхаков Ф. Г. Имя прилагательное. – М.: Ист.срав.грам. тюрк.яз., 1987. II. – С. 143–145.; Мадрахимов А. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир // Известия АН УзССР. Серия общественных наук. –Ташкент, 1957. –№ 1. – С. 41-47; Маъруфов З. М. Ўзбек тилида сифатларнинг қиёсий даражалари / Ўзбек тили грамматикасидан материаллар. Ўзбекистон Фанлар академияси Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент, 1949. – К. 1. – Б. 131–143.

² Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 2004. Маъруфов З. М. Ўзбек тилида сифатларнинг қиёсий даражалари / Ўзбек тили грамматикасидан материаллар. Ўзбекистон Фанлар академияси Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент, 1949; Мадрахимов А.Прилагательные новообразования в современном узбекском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1955; Содикова М. Ўзбек тилида ранг-тус билдирувчи сифатлар: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1963; Ҳамдамова И. Ўзбек тилида сифатларнинг маъно турлари ва уларнинг ўзбек тили изоҳли лугатидаги берилиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1964; Гиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Исхаков Ф. Г. Имя прилагательное. – М.: Ист.срав.грам.тюрк.яз., 1987. II. – С. 143–145; Қўлдошев М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат ясовчи маҳсулдор аффикслар: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1994; Ким Бъёнг Иль. Семантико-грамматические и стилистические особенности однокоренных параллельных прилагательных с различной аффиксальной частью в современном узбекском языке: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000; Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. –Тошкент, 2004



kategoriyasi turkiy tillar doirasida ham o'rganilgan³. M.Sodiqova belgi bildiruvchi leksemalarning ma'no nozikliklari, rang-tus bildiruvchi sifatlarning semantik xususiyatlarini yoritdi⁴. Olima "O'zbek tilida variantdoshlik" kitobida ot, sifat, son, olmosh, fe'l turkumidagi variantdoshlar ma'nosini izohlash jarayonida so'zlarning emotsiional-ekspressiv xususiyatlari borasida to'xtaladi, leksemalarning qo'llanishi, ma'no ifodalash darajasiga e'tibor qaratadi.⁵

Daraja tushunchasi daraja bildiruvchi leksemalar, daraja morfologik kategoriyasi, daraja-miqdor holi, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gap sifatida alohida-alohida o'rganilgan. Mazkur hodisa, uning xususiyatlari O.Bozorov, Sh.Shahobiddinova tadqiqotlarida, qisman F.Najmuddinov dissertatsiyasida yoritilgan⁶. Daraja tushunchasi haqidagi mulohazalar ayrim darslik, qo'llanmalarda ham keltirilgan.⁷

Tadqiqotlarda daraja tushunchasiga yondashuv bir xil emas. O'zbek tilidagi daraja ma'nosi va uni ifodalovchi vositalar tadqiqida turli aspektagi yondashuvlar mavjud. Ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Daraja ma'nosining diaxronik tadqiqi: a) formal diaxronik tadqiq;
b) formal-funksional diaxronik tadqiq.
2. Daraja ma'nosining sinxronik tadqiqi: a) formal-sinxronik tadqiq; b) formal-funksional sinxronik tadqiq.

O'zbek tilshunosligida daraja ma'nosini ifodalovchi vositalar formal-sinxronik tadqiqining ilk namunasini A.N.Kononov monografiyasida kuzatamiz.⁸ Olim sifat darajasi ikki ko'rinish (qiyosiy va orttirma)ga ega bo'lishini ko'rsatadi hamda qiyosiy darajaning uch usulda ifodalanishini ta'kidlaydi: a) morfologik; b) sintaktik; v) sintaktik-morfologik.

³ Хаметова А. Превосходная и преувеличительная степени имён прилагательных в тюркских языках (на материалах современных узбекского, уйгурского, казахского и туркменского языков): Автограф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: Фан, 1969. – 30 б.

⁴ Содикова М. Ўзбек тилида ранг-тус билдирувчи сифатлар: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1963;

⁵ Содикова М. Ўзбек тилида вариантдошлик. – Тошкент, 2009. – 50 б.

⁶ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. – Андижон, 1994. I қисм. – 108 б.; Шу муаллиф. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. – Андижон, 1994. II қисм. – 132 б.; Нажмиддинов Ф.Адъектив лексемаларда семалар таснифи ва семалараро муносабат турлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Навоий, 2000.

⁷ Ўзбек тили грамматикаси. Т. И. –Тошкент: Фан, 1975. – Б. 298-300; Расулов Р., Нарзиева М. Лексикологияни ўрганиш: Олий ўкув юртлари учун. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 23. Шоабдураҳмонов Ш., Аскарова М., Ҳожиев А. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.256.

⁸ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л.: АН СССР, 1960. – С.162–165.



Qiyosiy darajaning morfologik usulda ifodalanishi -roq affiksi vositasida amalgalashiriladi. A.N.Kononov mazkur shaklning kelib chiqishi masalasida ikki xil qarash borligini ko'rsatadi:

O.Byotling, V.Bang, J.Deni, M.Ryasyanen, K.Menges qarashlariga ko'ra -roq affiksi *yiroq* so'zining taraqqiyoti natijasidir.

G.Ramstedt, K.Brokkelman nuqtai nazaricha affiks otdan fe'l yasovchi -ra va fe'llashgan ismlar qo'shimchasi bo'lgan -k affiksidan tashkil topganligini ta'kidlaydi. Olimning o'zi affiksning aslida kichraytirishni ifodalovchi -*loq* qo'shimchasidan kelib chiqqanligi haqidagi fikrini bildiradi. Mazkur affiksning o'zbek adabiy tilidagi quyidagi ma'nolari xarakterli ekanligini aytadi:

a) sifatning noto'liq o'lchovini bildiradi: *maydaroq, balandroq, issiqroq* kabi;

b) ikki predmetni qiyoslamagan holda, birida belgining ortiq darajadaligini ifodalaydi (bunda oldinda yana ravishi keladi): *yana kuchliroq, yana go'zalroq, yana boyroq* kabi.

-roq affiksi ravish, sifatdosh, ravishdosh va ayrim otlarda belgining to'liq emasligini ifodalaydi: *beriroq, ichkariroq, o'qiganroq, kulganroq, ozroq, qo'rqiaproq* kabi.

A.N.Kononov qiyosiy daraja ifodalanishining sintaktik usuli ikki ko'rinishda bo'lishini keltirib o'tgan:

a) qiyoslanayotgan predmet chiqish kelishigida bo'lib, undan keyin sifat keladi: *temirdan og'ir, boldan shirin, qilichdan o'tkir*;

b) qaraganda, nisbatan, ko'ra ko'makchilar jo'naliш kelishigidagi so'zdan keyin keladi: *qandga qaraganda shirin, Andijonga nisbatan kattaroq* kabi.

Sintaktik-morfologik usulda morfologik vosita va sintaktik qurilma daraja ma'nosini ifodalashda uyg'unlashadi: olmadan shirinroq, o'g'lidan yaxshiroq kabi.

A.Kononov orttirma daraja voqelanishining 5 usulini ajratgan:

a) eng, juda, g'oyat, nihoyat so'zlari vositasida: eng yaxshi, juda chiroyli, g'oyat sovuq, nihoyatda issiq kabi;

b) egalik va chiqish kelishigi qo'shimchasini barcha, hamma, bari so'zlariga qo'shish orqali: barchasidan/hammaside/bara/ kuchli kabi;

v) sifatlarni qaratuvchili birikma sifatida takrorlash asosida: yaxshilarning yaxshisi, donolarning donosi kabi;

g) qaratuvchi otga qaralmish sifatni bog'lash asosida: qovunlarning yaxshisi, shoirlarning ulug'i, odamlarning aqlissi kabi;



d) chiqish kelishigidagi otga egalik shaklidagi sifatni bog'lash asosida: qovunlardan yaxshisi, shoirlardan ulug'i, odamlardan aqlisi kabi⁹.

O'zbek tili akademgrammatikasida sifat darajalariga munosabatning o'ziga xos ko'rinishi mavjud. Unda sifatning quyidagi daraja shakllari keltirilgan:

orttirma daraja – belgining ortiqligini ifodalaydi;

ozaytirma daraja – belgining kamligini ifodalaydi;

qiyosiy daraja – belgining ortiq-kamligini turli chog'ishtirish usullari vositasida aniqlaydi.

Orttirma darajani ifodalovchi vositalarning quyidagi tiplari ko'rsatilgan:

Morfologik usul (intensiv usul deb ham yuritiladi) da intensiv shakl bir predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgiga qiyos etmagan holda ifodalaydi. Uning ko'rinishlari sifatida quyidagilar ajratilgan:

a) so'zning birinchi bo'g'ini ajratilib, unga keyingi bo'g'indagi birinchi undoshni qo'shib, yopiq bo'g'in hosil qilish va asl o'zakni qo'shib aytish asosida: dum-dumaloq, sip-silliq, qop-qorong'i, nest-nobud, yam-yashil kabi;

b) so'zning avvalgi ikki tovushi ajratilib, unga p, m, s tovushlari qo'shilib, yopiq bo'g'in hosil qilinadi, so'ng o'zak qo'shib aytildi: kap-katta, sap-sariq, qip-qizil, sip-silliq, qop-qorong'i, nest-nobud, yam-yashil kabi;

v) so'z oldidan takrorlanuvchi qolip bo'g'in ikki (yopiq, ochiq) bo'g'indan iborat bo'ladi, boshqacha aytganda, ajratib olingan ikki tovushga p tovushini qo'shish orqali yopiq bo'g'in hosil qilinadi va unga yasama bo'g'in -pa qo'shiladi: to'ppato'g'ri, soppa-sog', oppa-son, quppa-quruq, teppa-teng, happa-halol kabi¹⁰.

Keltirilgan tasnidan ma'lum bo'ladiki, akademgrammatikada morfologik (intensiv) usul deganda so'z o'zgarishi hodisasi emas, balki fonetik usul nazarda tutilgan. Demak, bunda termin hodisa mohiyatiga unchalik to'g'ri kelmaydi. Akademgrammatikada ajratilgan fonetik usul intensiv (morphologik) usuldan keskin farqlanmaydi. Fonetik usul sifatida urg'u, intonatsiya, tovush takrori kabilar keltirilgan: balaand, kaatta, yam-yashil, qipp-qizil, yum-yumaloq kabi.

Akademgrammatikada leksik usulning bir necha ko'rinishi farqlanadi:

a) maxsus kuchaytiruvchi so'zlar orqali: juda, g'oyat, eng, nihoyatda, bir, biram, tim, naq, zap, behad, benihoya, cheksiz, mislsiz, tengsiz, nihoyasiz, beqiyos kabi;

b) takroriy so'zlar vositasida: zo'r-zo'r, barmoqday-barmoqday, ne-ne, kattadan-katta kabi;

⁹ Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л.: АН СССР, 1960. – С.162–165.

¹⁰ Ўзбек тили грамматикаси. Т. И. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 296–297.



v) turli so‘z birikmaları, idiomatik iboralar vositasida: haddan ziyod cho‘tir, haddan tashqari qonli, misli yo‘q bir to‘y, bahosi yo‘q juvon, ming marta yaxshi, aql bovar qilmas gap, mutlaqo notanish odam, husni bir jahon ayol kabi.

Mazkur manbada eng, yanada, battar kabi sodda, bir-biridan, biridan-biri, kundan-kun, yildan-yil, oydan-oy kabi takroriy so‘zlar qiyoslash vositasi sifatida xizmat qilishi, bular vositasida yuzaga kelgan qiyoslarda ham belgi ma’nosida ortiqlik ifodalanishi ta’kidlanadi.¹¹

Bunday usullar bilan, asosan, orttirma daraja ifodalanadi.

Leksik-semantik usul leksik usuldan farqli ko‘rinishlarga ega. Bunda belgi bildiruvchi so‘zlar o‘rnida boshqa ko‘chma ma’noli so‘z qo‘llanadi: shakar qovun, shayton qiz, olov bola kabi.

Akademgrammatikada ozaytirma darajaning ko‘proq rang-tus belgilariga xosligi qayd etilib, uni ifodalovchi quyidagi vositalar farqlanadi:

- 1) affiksatsiya usuli: a) -ish/-g‘ish (ko‘kish, oqish, qizg‘ish, sarg‘ish), -(i)mtir (qoramtil, ko‘kimtir) shakli;
- b) -roq affiksi (eskiroq tufli);
- 2) leksik vositalar yordamida: yarim, nim, och, xiyol,sal, aytarli, uncha, unchalik... emas, u qadar... emas;
- 3) leksik-morfologik usul. Bunda daraja ma’nosini ifodalash uchun leksik unsurlar morfologik shakllar bilan qo‘llanadi: Bunisi xiyol kichikroq.

Qiyosiy daraja shaklini yasovchi eng muhim vositalardan biri sifatida –roq affiksi ajratilgan. Bunda shakl ushbu ma’noni kontekstdagina anglatishi ta’kidlangan va qiyosiy daraja uchun quyidagi tartibda tuzilgan gaplar keltirilgan: -ga qaraganda ...roq, -ga nisbatan ...roq, -dan ko‘ra ...roq, -dan ham –roq.

Shuningdek, ko‘makchi so‘zlarsiz ham qiyosiy daraja ifodalanishi aytiladi: Tashakkurdan qimmatliroq mukofot bormi odam bolasiga.

–roq affiksining turli qurshov, so‘zlovlarning subyektiv munosabati asosida boshqa vositalarsiz qiyosiy daraja ma’nosini ifodalashi ta’kidlanganligi ham e’tiborga molikdir. Masalan, Ahmadning bo‘yi baland, Valining bo‘yi undan ham balandroq gaplari qiyoslansa, bunda -roq shaklining ortiqchaligi ko‘rinadi. -roq affiksi qiyos obyektini keltirmagan holatda ham qiyosiy daraja ma’nosini ifodalaydi: Valining bo‘yi balandroq.

Akademgrammatikada sifat darajasi ko‘rsatkichining belgining ortiq yoki kamligini anglatish xususiyati – daraja ma’nosini ifodalashi, turli-tuman (fonetik,

¹¹ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975. Т. I. – Б. 296-300.



leksik, semantik, leksik-morfologik, kontekstual, subyektiv munosabat) vositalar orqali reallashuvi ta'kidlangan.

O'zbek tilining grammatick xususiyatlari atroflicha yoritilgan mazkur manbada sifat darajalariga grammatick kategoriyadan kengroq hodisa sifatida munosabatda bo'lishga intilish seziladi. Son, egalik, kelishik, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon shakllari majmuiga nisbatan kategoriya atamasi ishlatilgan. Daraja ifodalovchi vositalarning «Grammatick kategoriyalar» mavzusi ostida alohida morfologik kategoriya sifatida maxsus ta'kidlanmaganligi fikrimizni isbotlaydi. Bu, albatta, daraja ma'nosini ifodalovchi vositalarning turli sathlarga mansubligi, boshqacha aytganda, mazmunan bir xillik va shaklan har xillik xususiyatiga egaligi uning grammatick kategoriya sifatida qaralishiga monelik qilganligi bilan belgilanadi.

U.Tursunov, J.Muxtorov va Sh.Rahmatullayevlar muallifligidagi «Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligida daraja kategoriya sifatida talqin etiladi va darajaning ikki shakli farqlanadi:

ozaytirma daraja;

orttirma daraja.

SH.Raxmatullaev сифатлардаги даражада ифодаловчи воситаларни анъанадагидан фарқли равишда грамматик категория сифатида қарашдан чекинади. Даражада маъносининг синхрон-формал-функционал талқинини амалга оширган тилшунослар унинг морфологик ва лингвистик хусусиятларини ўрганишда диалектик методология асосида иш кўрадилар. Хусусан, ўзбек тилшунослигига формал-функционал ёндашувнинг асосчиси бўлган С.Н.Иванов сифатлардаги даражани маҳсус грамматик категория сифатида ажратмаган ва у грамматик категориянинг фақат от ва феълда мавжудлигини таъкидлаган¹².

G'.Zikrillayev «O'zbek tili morfoloyiyasi»da sifatning daraja ma'nesi, asosan, uning lug'aviy ma'nesida mavjud bo'lishini ta'kidlaydi. Muallif daraja ma'nosini ifodalovchi vositalarning kategorial xususiyatlariga e'tibor qaratmasdan, shakllarning struktur xususiyatiga ko'ra o'ziga xos tasnifini beradi.

O.Bozorov sifat darajasi kategoriyasining shakllantirilish asosi va uning semantik xususiyatlari haqida fikr yuritar ekan, butun borliq hodisalari darajalanishi uchun umumiy bo'lgan «oz-meyoriy-ko'p» tamoyilidan kelib chiqilsa, ko'pgina an'anaviy tushunchalarimizning noto'liq, shartli ekanligi ma'lum bo'lishiga diqqatni tortadi:

¹² Иванов С.Н. Родословное древо-тюрок Абу-л-Газихана. Грамматический очерк. (Имя и глагол. Грамматические категории). – Ташкент: Фан, 1969. – С. 204.



«a) meyoriy (normal) daraja ma’nosи uchun xizmat qilib kelgan «oddiy daraja» atamasining qo‘llanilishi o‘rinli emas. Mantiqan olganda, «oddiy» tushunchasi aslida «murakkab» tushunchasiga zid qo‘yilishi lozim bo‘lib, bu tushuncha o‘zida «miqdor darajasi», «belgi darajasi turi» kabi ma’nolarni aks ettira olmaydi;

b) «oddiy-qiyosiy-orttirma» zidlanuvitagi «qiyosiy» atamasi ham o‘zi anglatib turgan daraja belgisining (masalan, «ozlik»ning) ma’nosini o‘zida aks ettira olmaydi. Aslida «qiyosiy» tushunchasi xususiy ma’no turlaridan birining emas, balki barcha xususiy ma’nolarning shakllantirilish asosi bo‘lgan usulning atamasidir».¹³

Z.Mamarajabova sifatning konnotativ ma’nolarini tahlil qildi, sifat leksemalar tarkibidagi konnotativ semalar va ularning qo‘llanish doirasini aniqladi. Tadqiqotchi sifat darajalarini grammatik-stistik kategoriya sifatida o‘rgandi. Daraja ma’nosini reallashtiruvchi vositalarning konnotativ ma’nolarini tahlil qildi. Sifatlardagi daraja shakllarining belgi ma’nosini kuchaytirib yoki ozaytirib ifodalash bilan bir qatorda kontekstda turli emotisional-ekspressiv ma’no bo‘yoqlariga ega bo‘lish imkonini lisoniy faktlar asosida isbotladi.¹⁴

Ko‘rinadiki, tilshunoslar o‘zbek tilida daraja ma’nosи va uning ifodalanishi mavjudligini e’tirof etganlari holda, uning kategorial xususiyati, tarkibi va ifodalovchi vositalari masalasida yakdil emaslar.

O‘zbek tilidagi birorta hodisa darajadek rang-barang talqinlarga ega emas. Buning barchasi daraja ma’nosini ifodalovchi vositalarning har xilligi, qamrovi kengligi, aniqrog‘i, grammatik kategoriya mezonlariga sig‘masligi bilan belgilanadi.

¹³ Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – Б. 34.

¹⁴ Мамаражабова З. Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2004.